

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.X.Raxmatova	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari	98
X.A.Yulbarsova	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	102
A.B.G'ulomov	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlarini	107
B.Raxmanov	
Ibn Sinoning nohiziqi tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar	110
N.A.Imomova	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari	117
L.R.Usmonova	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida	122
B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova	
O'zbekistonda tadbirkorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini	128
A.Tashanov	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari	135
A.A.Qambarov	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili	140
D.X.Gafforova, I.I.Rizayev	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari	144
J.J.Shodiyev	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni	150
D.O.G'afurov	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyofasi	155

SIYOSAT

R.B.Mirzabayev	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari	159
R.A.Ikramov	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarining o'rni	168
D.Sh.Maxkamov	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati	173
M.M.Safarov	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari	177

TARIH

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	185
M.F.Rasulov	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri)	190
M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari	196
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	200
B.T.Mirzaqulov	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi	204

UDK: 94 (575.171)

DOI: [10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a38](https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a38)**XORAZMDA XALQ MAORIFI TIZIMI RIVOJLANISHI: MUAMMOLAR, VAZIFALAR VA NATIJALAR****РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ХОРЕЗМЕ: ПРОБЛЕМЫ, ЗАДАЧИ И РЕЗУЛЬТАТЫ****DEVELOPMENT OF THE PEOPLE'S EDUCATION SYSTEM IN KHORAZM: PROBLEMS, TASKS AND RESULTS****Atajanova Feruza Erkinovna¹****¹Atajanova Feruza Erkinovna**– Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali
Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti, tarix fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Maqolada mustaqillik yillarida Xorazm viloyatida xalq maorifi sohasidagi muammolar, vazifalar va natijalar yoritilgan. Maqolada xalq ta'limida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi va o'quvchilarning Xalqaro tanlovlardagi yutuqlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan bo'lib, shuning bilan birga xalq ta'limi sohasidagi kamchilik va muammolar ham ko'rsatib o'tilgan.

Аннотация

В статье описаны проблемы, задачи и результаты в сфере народного образования Хорезмской области за годы независимости. В статье представлена информация о достижениях преподавателей и учащихся, работающих в народном образовании, на международных конкурсах, а также о недостатках и проблемах в сфере народного образования.

Abstract

The article describes problems, tasks and results in the field of public education in Khorezm region during the years of independence. The article provides information on the achievements of teachers and students working in public education in international competitions, as well as the shortcomings and problems in the field of public education.

Kalit so'zlar: Xalq ta'limi, umumta'lim maktablari, o'qituvchi, o'quvchi, maktab-internat, ko'rik tanlov, ixtisoslashgan maktab, moddiy-texnik baza, olimpiada, tajriba almashish.

Ключевые слова: Народное образование, общеобразовательные школы, учитель, ученик, школа-интернат, конкурсный экзамен, специализированная школа, материально-техническая база, олимпиада, обмен опытом.

Key words: Public education, general education schools, teacher, student, boarding school, competitive examination, specialized school, material and technical base, Olympiad, exchange of experience.

KIRISH

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi, ta'lim tizimini, ilm-fan sohalarini yanada taraqqiy ettirish va salohiyatli kadrlar yetishtirib chiqarish davlat siyosatining o'ta muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Zamon talabi va xalqimizning xohish-irodasi kelib chiqib ta'lim tizimida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim sohasida 11 yillik tizimga o'tildi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari optimallashtirilmoqda, oliy ta'lim tizimida eng zamonaviy texnologiyalar amaliyotga tatbiq etilmoqda, yangidan oliy ta'lim muassasasi va filiallari tashkil etilmoqda, sirtqi, maxsus va ikkinchi mutaxassislik ta'lim yo'nalishlari tashkil qilindi, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklar tashkil etilmoqda, ilmiy va ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnik bazasi tubdan rivojlantirilmoqda. Maktabgacha ta'limni tarixda bo'lmagan yangi darajaga olib chiqish maqsadida keng ko'lami islohotlar davom etmoqda. Mazkur holatni hisobga olgan holda, O'zbekistonda ta'lim sohasi va ilm-fanning rivojlantirilishi masalalarini Xorazm viloyati misolida ko'rib chiqish, xolisona va tanqidiy tahlil qilish, uni to'liq ochib berish tanlangan maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda 1991–yildan keyingi ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash borasidagi tajribalarni Xorazm viloyati misolida o'rganish ishiga A.Sa'dullaev, A.Satliqov, M.Matniyozov, S.Hasanov,

TARIX

E.Karimov, Z.Qo'chqorov, T.Doschanov, M.Mahmudov, B.Bobojonov, M.Iskandarova, Sh.Masharipova, Yu.Q.Ergashev va A.A.Mavrulov [8] kabi tadqiqotchilar e'tibor qaratganlar. Bir qarashda O'zbekistondagi ta'lim sohasi chet ellik tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolganday ko'rinadi, ammo xalqaro ilmiy sayt — Scopus.com materiallarida AQShning Vanderbilt universiteti professori S.Xeynemann sobiq sovet tuzumi qulagandan keyingi Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistondagi ta'lim tizimi tahliliga qaratilgan turkum maqolalar chop qildirgan. I.Silova, Albina Yung, B.Babaev, Mohd Aslam Bxatt, A.Cheletti, J.Brunner, E.Tillet va A.Smolentseva kabi xorijlik tadqiqotchilar tadqiqotlarida ham O'zbekistonda ta'lim tizimi masalalariga ham e'tibor qaratilgan. [9]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Zamonaviy bilim berish uchun avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak” – degan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov.

“Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak” – degan edi Shavkat Mirziyoyev.

1991–2010–yillarda 55 nafar o'qituvchi-pedagog va rahbar xodimlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish “Iste'dod” jamg'armasi granti asosida turli mamlakatlarda malakasini oshirib keldilar. Birgina 2009-yilda 15 nafar o'qituvchi ana shunday imkoniyatlarni qo'lga kiritdi.

2001–yili Shotlandiyada bo'lib o'tgan xalqaro fizika fani olimpiadasida Hazorasp tumanidagi 1-son ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi o'quvchisi Jonibek Yusupov g'olib bo'lib qaytdi. Ana shu maktabning ikki nafar o'quvchisi Tailanda o'tkazilgan Xalqaro olimpiadada (2001-yil) fizika fani bo'yicha ishtirok etib, faxrli o'rinni egalladi.

Xalqaro va respublika fan olimpiadalarida viloyat umumiy o'rta ta'lim maktablarining 33 nafar o'quvchisi sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Umumta'lim maktablarining 10 nafar o'quvchisi turli yillarda Zulfiya nomida gi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldilar. [6]

2011–yil “Yilning eng yaxshi maktabi” ko'rik-tanlovida Urganch shahridagi 5-son maktab jamoasi respublikada 1-o'rinni egalladi. Shu o'quv “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” ko'rik-tanlovining respublika bosqichida xorazmlik 7 nafar o'qituvchi sovrinli o'rinlarni egalladi. Jumladan, 2 nafar o'qituvchi Xonqa tumanidagi 48-son ixtisoslashtirilgan maktab-internat fizika fani o'qituvchisi Mehribon Aminova hamda Urganch shahar 1-son maktab biologiya fani o'qituvchisi Sanobar Otajonovalar 1-o'rinni egalladilar. 2011–yil fan olimpiadasi respublika bosqichida viloyat umumta'lim maktablari o'quvchilari III- o'rinni egalladilar.

2010-2011 o'quv yilida viloyatdagi 532 ta umumta'lim maktablarining 31045 nafar 9-sinf bitiruvchilari mavjud edi. 2011-yilda umumta'lim maktablari qurish uchun 5 mlrd. 199,3 mln. so'm mablag' sarflandi va 2370 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan 7 ta maktab ishga tushirildi. 2012 yilda viloyatda 531 ta o'rta umumta'lim maktablari faoliyat ko'rsatib, o'quvchilar soni 263,5 ming nafarni tashkil qildi.

Maktablarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga e'tibor berib kelinardi. “Farzandlarimizni bolalikdan asosan, maktab yoshidan boshlab sportni o'zining hayotdagi doimiy hamrohi deb bilishi, ular umrbod sport bilan do'st bo'lib qolishini, buning uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni barpo etishni o'zimizga maqsad qilib qo'ygan edik”, [1]

Degan edi birinchi prezident I.A.Karimov 2002-yil 24-oktabrda “Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi” tashkil etilgan. 2012–yilda xorazmlik maktab o'quvchilaridan 1500 nafari respublika miqyosida, 140 nafari esa xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishdi. 2015 yilda jamg'arma mablag'lari hisobidan Xitoy, Italiya, Fransiya, Portugaliya, Bolgariya, Yaponiya, Gretsiya, Chexiya, Rossiya kabi 24 ta davlatda bo'lib o'tgan 53 ta nufuzli xalqaro sport musobaqalarida iqtidorli yoshlarning ishtiroki ta'minlandi.

2016–yilda Xorazm viloyati xalq ta'limi tizimida jami 528 ta umumta'lim muassasasi (16 ta maxsus va ixtisoslashtirilgan maktab-internat, 19 ta ixtisoslashtirilgan maktab, 4 ta futbol maktab-internati), 1 ta nodavlat, 249 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 12 ta “Barkamol avlod” bolalar markazi, 12 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi, Bolalar shaharchasi, Oilaviy bolalar uyi, 15 ta Bolalar musiqa va san'at maktablari, Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyat ko'rsatdi.[2]

Istiqlol yillarida viloyat xalq ta'limi tizimining moddiy texnik bazasi mustahkamlandi: 7 ta maktab yangidan qurildi, 185 ta ilm maskani qayta rekonstruksiya qilindi. 295 ta maktab mukammal ta'mirlandi. Mavjud maktablarning barchasi zamonaviy kompyuter texnikalari bilan ta'minlandi, shu jumladan, 482 ta maktabda kompyuterlar lokal va Internet tarmog'iga ulangan sinflar tashkil etildi. Shuningdek, 2016 yilning birinchi choragida 72 ta kompyuter sinfi, 72 ta interaktiv doska manzilli ro'yhat asosida chekka hududlardagi ta'lim muassasalariga yetkazib berildi.

Maktablarning moddiy-texnik bazasini boyitishga ham doimiy e'tibor berib kelingan. Agar 1997 yilda 500 o'ringa mo'ljallangan 10 ta maktab binosi ishga tushirilgan bo'lsa, 1999–yilda 3311 o'rinli yangi 11 ta maktab binosi qurildi.

O'quvchilarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida 528 ta umumta'lim maktabida 10560 ta turli fan, sport, musiqa, rassomchilik, amaliy san'at yo'nalishidagi to'garaklar tashkil qilindi. Ushbu to'garaklarga umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan 275181 nafar o'quvchidan 244911 nafari, ya'ni 88.9 foizi jalb qilindi. Shuningdek, viloyatdagi 12 ta "Barkamol avlod" bolalar markaziga 4415 nafar, "Ustoz – shogird" yo'nalishidagi to'garaklarga 430 nafar, 12 ta Bolalar va o'smirlar sport maktablariga 20555 nafar, 15 ta Bolalar musiqa va san'at maktablariga 2932 nafar o'quvchilar jalb qilindi. [3]

Ta'lim jarayonlarida axborot texnologiyalari tobora ko'proq joriy qilindi. Bu axborot almanishinuv, dunyoni yurtimizda kechayotgan jarayonlardan xabardor qilish, o'z navbatida dunyoda kechayotgan jarayonlardan xabarli bo'lishga xizmat qildi. Viloyat xalq ta'limi tizimida bu sohada ham ko'zga ko'rinarli yutuqlarni qo'lga kiritildi. Jumladan, 2015-2016 o'quv yilida Xonqa tumanidagi 34-sonli maktab veb sayti "Eng yaxshi maktab veb sayti" tanlovining Respublika bosqichida 1-o'rinni egalladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qarori asosida ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish borasida izchil tadbirlar amalga oshirildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 25-martdagi "Umumta'lim muassasalarining chet tillar o'qituvchilari malakasini va kasb-mahoratini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 67-sonli qarori asosida viloyatdagi barcha umumta'lim maktablarining har birida 2 tadan chet tili xonalari jihozlandi. [6]

"Yilning eng yaxshi chet tili fani o'qituvchisi" ko'rik tanlovlari o'tkazildi. 2014–yilda Respublika Respublika hakamlar hay'atining xulosasiga ko'ra Xorazm viloyatidan 5 nafar chet tili fani o'qituvchisiga Respublika bosqichida qatnashish huquqi berildi. Respublika bo'yicha bellashgan 71 nafar chet tili fani o'qituvchilari orasida viloyatdan 3 nafari: Xonqa tumani 33-maktabning chet tili fani o'qituvchisi Charos Tairovna Sharipova, Pitnak shahri 1-sonli ixtisoslashgan maktabning chet tili fani o'qituvchisi Lobarxon Ortiqboyevna Matyaqubova, Xonqa tumani 7-ixtisoslashgan maktabning chet tili fani o'qituvchisi Inobat Shonazarovna Sobirovalar Respublika bosqichida 200 balldan yuqori ball to'pladilar va Angliya davlatiga tajriba almashuv uchun borish xuquqini qo'lga kiritdilar.

2015–yilda Bog'ot tumani 2-sonli umumta'lim maktabi nemis tili o'qituvchisi Feruza Olimboyevna Mavlonova va 2016-yilda Urganch shahri 19-umumiy o'rta ta'lim maktabi nemis tili o'qituvchisi Roza Davlatmuratovna Sobirova Respublikada 1-o'rinni egalladilar. [2]

Farzandlarimizni katta hayotga tayyorlab borish, kelajakda ularga zarur hayotiy bilimlarni berishga qaratilgan turli tanlovlarda viloyat maktab o'quvchilari faol qatnashib, yuqori natijalarga ega bo'ldilar. Masalan, Urganch shahridagi 1-maktabning 1-sinf o'quvchisi Sardorbek Salimov "Soliq bilimlari bolalarga" tanlovida, Urganch tumanidagi 38-maktabning "Kamalak zukkolari" jamoasi "Kamalak bilimdonlari" tanlovlarning Respublika bosqichida 1-o'rinni egallashdi. [7]

XULOSA

Ammo yuqoridagi erishilgan yutuqlar va natijalar bilan birga ko'pgina kamchiliklar ham mavjud. Jumladan, hozirgi vaqtda, afsuski, respublika miqyosida 11 mingdan ortiq o'qituvchilik lavozimlarida vakansiyalar mavjud va 66 ming nafardan ortiq oliy ta'lim diplomiga ega bo'lmagan o'qituvchilar maktablarda faoliyat yuritishmoqda. Ular orasida erkak o'qituvchilar ulushi 30 foizdan kam ekan. Toshkent shahrida esa bu ko'rsatkich atigi 10 foizni tashkil etadi", — deb yozadi vazir.

Bu kamchilik va muammolar xalq ta'limining barcha xodimlariga juda katta mas'uliyat ham yuklaydi. Ular davlat rahbari tomonidan yaqin 3-4 yil uchun belgilab berilgan ushbu ulkan

TARIX

vazifalarni to'laqonli va sifatli amalga oshirish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi va bu borada amalga oshirilgan ishlarning natijalari // Xalq so'zi. 2016, 12 fevral.
2. Matkarimov, Sh. Xalq ta'limi tizimi: mustaqillik muvaffaqiyatlarni ta'minlamoqda // www.xorazm.uz. 4.04.2016.
3. Xalq ta'limi: tizimdagi islohotlar qanday kechmoqda? //marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/1072.html.
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 y., 07/17/3304/0037-son
5. 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 8-ILOVA. Toshkent. 2017.
6. Atajanova F.E.Mustaqillik yillarida O'zbekistan ta'lim tizimiga bo'lgan munosabat. "O'tmishga nazar" jurnali, 2019. – № 8. – B.18-24.
7. Atajanova F.E.Izmeneniye otnosheniya k sisteme obrazovaniya Uzbekistana za gody nezavisimosti // Obrazovatel'naya sistema v ramkax protsesssa sovershenstvovaniya sovremennogo nauchnogo znaniya. Sbornik nauchnyx trudov Rossiya, g. Kazan, 2019.07. – S.91-94
8. Маврулов А.А. Ҳозирги босқичда Ўзбекистон маданияти: умумий ҳолат, муаммолар: тараққиёт йўналишлари: Тарих фанлари доктори ... дисс. — Тошкент, 1993. – 296 б.
9. Heyneman, P. Stephen. "A Comment on the Changes in Higher Education in the Former Soviet Union". European Education, 42 (1). 2010. – Pp. 76–87. DOI: <https://doi.org/10.2753/EUE1056-4934420104>; Heyneman S. A Comment on the Changes in Higher Education in the Post-Soviet Union: European Education, vol. 42, no. 1 (Spring 2010). Pp. 76–87. – Washington: Vanderbilt university press. April, 2010.